

XALQARO HUQUQDA “YUMSHOQ HUQUQ” (SOFTLAW) KONSEPSIYASINING MAZMUNI

Samadov Sarvar Jamshid o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Email ID: sarvarsamadov457@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Yumshoq huquq” (softlaw) konsepsiyaning mazmuni, uning kelib chiqish tarixi, sabablari, rivojlanishi o'rganiladi. Tadqiqot davomida “Yumshoq huquq” konsepsiyasining xalqaro huquqda tutgan o'rni, afzalliklari, kamchiliklari haqida so'z yuritiladi. Maqolaning dolzarbligi milliy va jahon qonunchilik tizimida izchil tahlil qilinadi. Mavzu doirasida jahon va milliy olimlarining fikrlardan foydali havolalar beriladi.

Kalit so'zlar: yumshoq huquq, ekologik huquqlar, deklarativ normalar, rezolutsiyalar, bitimlar

Zamonaviy xalqaro huquqning rivojlanishi, jahon miqyosida sodir bo'layotgan munosabatlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Klassik xalqaro huquqdan farqli o'laroq, zamonaviy xalqaro huquqning ta'sir va majburlash kuchi eskisidan samaraliroq hisoblanmoqda. Davlatlarning ko'payishi bilan ular o'rtasidagi munosabatlarni turli xil mexanizmlar yordamida tartibga solish ehtiyoji tug'ilgan.

Klassik xalqaro huquqning elementlaridan biri bu “Yumshoq huquq”dir. Ko'pchilikka notanish bo'lgan bu termini ta'riflashga harakat qilamiz. Xalqaro “yumshoq huquq” aniq huquq va majburiyatlar yuzaga keltirmaydigan, faqatgina umumiy yo'nalish beradigan va ayni chog'da bu yo'nalishga subyektlar amal qilishi majburiy bo'lgan xalqaro-huquqiy normalarning alohida turidir. Bunday normalar uchun “erishish”, “intilish”, “zaruriy choralar ko'rish” va boshqa shu singari so'zlar xosdir. Ular, ayniqsa siyosiy shartnomalarda tobora ko'payib bormoqda.¹ Xalqaro “yumshoq huquq” nohuquqiy xalqaro normalarga nisbatan ishlatiladi. Ular nohuquqiy hujjatlarda — xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarida, qo'shma bayonotlarda, kommyunikelarda mavjud bo'ladi. Bu normalarga misol sifatida Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) hujjatlarini² ko'rsatish mumkinki, ular Yevropadagi xalqaro munosabatlar tizimini qayta ko'rishda muhim vositaga aylangan.

Demak, “Yumshoq huquq” ning asosiy belgisi bu bajarilishi shart emasligidir. Masalan, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiya” sida faqat umuminsoniy qarashlar bayon etilgan. Ya'ni kelajakda qabul qilinayotgan boshqa hujjatlarning yaralishiga asos bo'lib xizmat qiladi, tuzilayotgan xalqaro huquqiy hujjatning yo'nalishini belgilab beradi. Fikrimizcha bu huquq xalqaro huquq odatlari sirasiga kiradi.

Biroq, ko'pchilik olimlar yoki siyosatchilar bu huquqdan ilgari ko'p foydalanishmagan va “yumshoq huquq” atamasi kam qo'llanilgan? Fikrimizcha kam qo'llanilishiga asosiy sabab

¹ Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ 1.1. Lukashuk, A.X. Saidov; - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jam'iyati nashriyoti, 2007. 22 b.

² Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining insoniylik mezonlari / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. — T., 2002. — 166-b.

bu davlatlarni birlashtiruvchi yagona xalqaro huquq subyekti bo'lmaganidir. “Yumshoq huquq” da majburiyat bo'lmaganligi tufayli sanksiyalar yuzaga chiqishini istisno etadi. Shuningdek bu huquq an'anaviy huquqning majburiy kuchidan biroz zaifroq bo'lgan *kvazi-huquqiy* hujjatlarga (masalan, tavsiyalar yoki ko'rsatmalar) ishora qiladi.

Xalqaro huquqda “Qattiq qonun” (hardlaw) tushunchasi ham mavjud. Qattiq qonun haqiqiy majburiy huquqiy hujjatlar va qonunlarni anglatadi yumshoq huquqdan farqli o'laroq, qattiq qonun davlatlar va xalqaro ishtirokchilarga haqiqiy majburiy majburiyatlar va huquqlarni beradi. Bu atama xalqaro huquqda suveren boshqaruv organlari mavjud bo'lmagan hollarda keng tarqalgan.³

Qonuniy kuchga ega emasligiga qaramay, “yumshoq huquq” hujjatlari ta'sirchan hisoblanadi va davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlariga sezilarli amaliy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu vositalar ko'pincha xulq-atvorning muhim manbalari va tamoyillari bo'lib xizmat qiladi va ular xalqaro odatiy huquqning rivojlanishiga ham ta'sir qilishi mumkin.

“Yumshoq huquq”ning asosiy xususiyatlaridan biri uning moslashuvchanligidir. Bu davlatlarga va boshqa xalqaro huquqiy munosabat ishtirokchilariga an'anaviy shartnomalar bilan bog'liq rasmiyatchilik va majburiyatlarsiz normalar va standartlarni o'rnatishga imkon beradi. “Yumshoq huquq” inson huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, savdo va rivojlanish kabi ko'plab masalalarni qamrab olishi mumkin. “Yumshoq huquq” ning xalqaro huquqdagi ahamiyati va ta'siri vaqt o'tishi bilan ortib bordi, chunki xalqaro munosabatlar yanada murakkab va o'zaro bog'liq bo'lib qoldi. Bu majburiy shartnomani muzokara qilish yoki amalga oshirish qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan sohalarda xalqaro hamkorlik va muvofiqlashtirish uchun vositani taqdim etadi. Qonuniy majburiy emasligiga qaramay, “yumshoq huquq” hujjatlari xulq-atvorni shakllantirish, hamkorlikni rivojlantirish va global muammolarni hal qilish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin. Xalqaro huquqning rivojlanayotgan tabiati va global subyektlarning xilma-xilligi ahamiyatini tobora ko'proq tan olishga olib keldi yumshoq huquq shartnomalar va konvensiyalarning an'anaviy huquqiy asoslarini to'ldirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro shartnomalar ko'pincha noaniq shakllarda tuziladi. Ba'zilarida nizolarni hal qilish imkoniyati mavjud, boshqalarida esa yo'q, monitoring qoidalarini muhimdan mavjud bo'lmagangacha o'zgarib turadi, ba'zilarida esa juda batafsil, boshqalarida esa noaniq.⁴ Davlatlar shartnomalar tuzganlarida, albatta, ular hujjatning shakli va mazmuni bo'yicha deyarli to'liq erkinlikka ega. Shunday ekan, davlatlarni bir shaklni boshqasini tanlashiga nima majbur qiladi? Xalqaro shartnomalarning xilma-xilligining eng aniq manbalaridan biri bu qattiq va yumshoq huquq o'rtasidagi tanlovdir. Nega davlatlar ba'zan xalqaro huquq bo'yicha rasmiy majburiy bo'lgan shartnomalar tuzishdan ko'ra majburiy bo'lmagan shartnomalar tuzishni afzal ko'radilar?. Chunki, “yumshoq huquq” dan foydalanayotgan davlat majburiyat olmaydi. “Yumshoq huquq” ning siri shundaki, xalqaro huquqiy munosabat ishtirokchilari belgilangan bitim yoki kelishuvdan ko'ra ko'proq narsa olish ba'zan kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu strategiya xalqaro huquqda keng qo'llanilsada, ammo murakkab munosabatlarda

³ Robilant, Anna Di (2006). *"Genealogies of Soft Law"*. *The American Journal of Comparative Law*

⁴ Hozirgi kunda xalqaro shartnomalar tuzishning turli usullarini o'rganadigan kuchli adabiyotlar mavjud. Ser Barbara Koremenos, Charlz Lipson va Dunkan Snidal (2001a, 1051; 2001b, 761); Kal Raustiala (2005, 581; 2004, 389);

qo'llab bo'lmaydi. Masalan, "BMW" kompaniyasi O'zbekiston bilan mahsulot yetkazib berish to'g'risidagi shartnomada yumshoq huquqni qo'llab bo'lmaydi.

Bir qancha olimlar "Yumshoq huquq" borasida bahs-munozaralar olib borishgan. Xususan, Klabbers "yumshoq huquq" ning qo'llanilishiga qarshi chiqadi. Uning fikricha yumshoq huquq tushunchasiga qarshi qat'iy kurash olib bordi va bu ortiqcha ekanligini ta'kidladi, chunki "an'anaviy qattiq huquq tushunchasi odatda yumshoq qonunga yuklangan funksiyalarni bajarishga qodir"⁵

Amerikalik olim Shelton "yumshoq huquq"ning istiqboli haqida keltirib o'tadi: "Yumshoq huquq qattiq qonun hujjatlaridagi bo'shliqlarni to'ldirish yoki qattiq qonun hujjatlarini yangi normalar bilan to'ldirish uchun ishlatilishi mumkin. Aksincha, yumshoq huquq hujjati shartnomaning oldingi qismi sifatida qabul qilinishi mumkin."⁶

Yumshoq huquq ko'pincha rasmiy shartnomaning ba'zi xususiyatlariga ega bo'lgan xalqaro hujjat shaklida bo'ladi, lekin bitta bo'lishi kerak bo'lgan talablarga javob bermaydi. Umuman olganda, bu aloqador davlatlar bo'lish niyatida emasligini anglatadi xalqaro huquq bilan bog'langan Yumshoq huquqning bu turiga misollar juda ko'p. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida davlatlar uchun inson huquqlari bo'yicha majburiyatlar to'plami belgilab qo'yilgan, ammo davlatlar uchun majburiy emas. Bazel kelishuvlari bank faoliyatini tartibga solish amaliyotini yaxshilashga intiladi va ayni paytda yumshoq huquqdir. Yadroviy yetkazib beruvchilar guruhi yo'riqnomalari 45 a'zodan iborat Yadroviy ta'minotchilar guruhi, London klubi tomonidan e'lon qilingan davlatlar o'rtasida yadroviy materiallarning o'tkazilishini tartibga soluvchi eksport nazorati bo'yicha yo'riqnomalar to'plami bo'lib, bu yo'riqnomalar qonuniy kuchga ega bo'lmasa- da, lekin qonuniy jihatdan mazmunini ta'minlaydi. Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma tomonidan belgilangan eksport nazorati majburiyati (Meyer 2009)⁷

Yumshoq huquq jahonda yuz berayotgan xalqaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi xususiyatga ega. Masalan, Olimpiya o'yinlarini o'tkaziladigan joylarni aniqlash, odatda tadbirni o'tkazishni xohlaydigan bir necha davlatlar o'rtasida o'zaro aniqlanadi. Qiziq jihati shundaki, ushbu muammoni hal etish uchun hech qanday rasmiy shartnoma talab etilmaydi va oxirgi qaror Xalqaro olimpiya qo'mitasi tomonidan qabul qilinadi.

Yumshoq huquq normalari, shuningdek, davlatlar tomonidan o'zlarining ichki qonunlarida qabul qilinishi yoki xususiy majburiy bitimlarga qo'shilishi orqali qattiq qonunga aylanishi mumkin. Ikkinchisi ko'pincha shartnomalar yoki boshqa tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi standartlar bilan sodir bo'ladi. UNIDROIT (Xalqaro xususiy huquqni moslashtirish instituti) qiyosiy huquqiy tahlil asosida konvensiyalar, namunaviy qonunlar va tamoyillar loyihalarini tayyorlaydigan mustaqil hukumatlararo tashkilotdir. Uning matnlari transmilliy biznes aloqalarini uyg'unlashtirish zaruratini to'ldirishga yordam beradi, ishonchli shartnoma shartlari va majburiyatlarini ta'minlaydi va huquqiy noaniqliklar va lingvistik

⁵ Klabbers, Jan. "The Redundancy of Soft Law." *Nordisk Journal of International Law* 65.2 (1996): 167–182.

DOI: 10.1163/15718109620294889

⁶ Shelton, Dinah, ed. *Commitment and Compliance: The Role of Non-binding Norms in the International Legal System*. Oxford: Oxford University Press, 2000

⁷ <https://nuclearsuppliersgroup.org/en/>

tushunmovchiliklarni minimallashtiradi. Bir- biridan sezilarli darajada o'zgarib turadigan milliy qonunlar tranzaksiya xarajatlarini ko'tarishi mumkin, shunda nomuvofiqliklar savdo uchun tarifsiz to'siq sifatida ko'rib chiqilishi mumkin 2006: UNIDROIT shartnoma tamoyillari milliy va xalqaro shartnoma huquqida mavjud qoidalar katalogini taqdim etadi. Ushbu yumshoq huquq bir necha usulda qo'llanilishi mumkin: (1) majburiy shartnomaga aniq kiritilgan, (2) ichki shartnoma qonunchiligiga qo'shimcha; (3) milliy va xalqaro huquqni rivojlantirishning namunaviy kodeksi; (4) yanada moslashtirish uchun asos va (5) lex mercatoria (odatiy xalqaro tijorat huquqi) shakllanishining bir qismi (Meyer 2006; 134-135)⁸

Sud tizimida yumshoq huquq normalarining qo'llanilishi. Yumshoq huquq normalariga oid sud amaliyotini qidirishda Xalqaro jinoyat sudining qarorlari kam. Yumshoq huquq xalqaro savdoda keng qo'llanilganligi bois arbitraj sudlarida bu huquqdan foydalaniladi. Mashhur muammolardan biri bu "Nikaragua ishi" sudidir. Amerika Qo'shma Shtatlar Nikaragua davlatiga nisbatan boshqa davlatga qarshi kuch ishlatmaslik va boshqa davlatning ishlariga aralashmaslik bo'yicha odatiy xalqaro huquq bo'yicha o'z majburiyatlarini buzgan deb topdi. Ko'pchilik "har bir suveren davlatning o'z ishlarini tashqi aralashuviz yuritish huquqini o'z ichiga olgan" aralashmaslik prinsipi "xalqaro odat huquqning bir qismi va ajralmas qismi" ekanligini aniqladi, garchi "bu tamoyilga zid bo'lgan huquqbuzarlik sodir etilgan bo'lsa ham."⁹ Keltirilgan sud ishida Xalqaro adolat sudi xalqaro odatlar buzilganligi, oldin qabul qilingan deklaratsiyalardagi prinsiplar buzilgan deb topadi.

Mashhur keyslardan yana bir bu "North Sea Continental Shelf (Federal Republic of Germany/Netherlands)". Keysga ko'ra har bir davlatning manfaati adolatli tamoyillarga muvofiq belgilanishi kerakligini aniqlanadi. Bu uning dengiz ostidagi quruqlik hududining tabiiy ravishda uzaytirilishini tashkil etdi va buning uchun e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ayrim omillarni ko'rsatdi. Sud ko'rib chiqilayotgan delimitatsiyalar 1958 yildagi Jeneva konvensiyasida belgilangan kontinental shelf bo'yicha belgilangan teng masofa tamoyiliga muvofiq amalga oshirilishi kerakligi haqidagi da'voni rad etdi. Sud Germaniya Federativ Respublikasi ushbu Konventsiyani ratifikatsiya qilmaganligini hisobga oldi va teng masofalilik prinsipi qit'a shelfining huquqlarining asosiy konsepsiyasiga xos emas va bu tamoyil xalqaro odatlar huquqining qoidasi emas, deb hisobladi¹⁰. Yuqoridagi keysda ham yumshoq huquq xalqaro huquq odatlari sifatida kelmoqda.

XULOSA.

Yumshoq huquq xalqaro huquq odatining oliy ko'rinishi sifatida xalqaro munosabatlarda muhim rol o'ynamoqda. Klassik xalqaro huquqning qayta takomillashuvidan vujudga kelgan bu huquq har qanday subyektga o'zining ta'sirini ko'rsata olmoqda. Hattoki xalqaro sudlarda ham yumshoq huquqdan foydalanish ko'paymoqda (Masalan: Pulp Mills ishi b'yicha Argentina va Urugvay uchun sud yumshoq huquq normalaridan foydalangan. Ikkinchi

⁸ Soft Law Dinah L. Shelton George Washington University Law School, dshelton@law.gwu.edu

⁹ <https://www.icj-cij.org/case/70>

¹⁰ <https://www.icj-cij.org/case/52>

tarafi yumshoq huquqdan foydalanishda suuiste'molikka yo'l qo'yilmoqda. Negaki, bu normalar majburiyat yuklamay, deklarativ tusda bo'lganligi uchun ba'zi davlatlar bundan foydalanib qolishadi. Ba'zi olimlar o'z maqolalarida "yumshoq huquqning to'rt nazariyasi" dan keng foydalanishadi. Maqolada ularning qo'llanmasligining sababi o'rganish predmetidan chetga chiqib ketmaslik. Yumshoq huquq qoidalari turli kovensiyalarda, deklaratsiyarda, yo'riqnoma, rezolutsiyalarda namoyon bo'ladi. Chiqaruvchi asosiy subyekt esa BMT hisoblanadi.

Lekin fikrimizcha yumshoq huquq normalarini qo'llash unchalik ham samarali hisoblanmaydi. Majburiyat belgilangan davlat o'z majburiyatini bajarmaslik oqibatida nizolar kelib chiqishi tayin. Shuningdek, kelib chiqadigan nizolar uchun ham, sud amaliyoti uchun ham yumshoq huquq qoidalari qo'llash foydali emas. Chunki bu qoidalar to'liq tartibga solinmagan va haligacha mavhum.

REFERENCES:

1. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ 1.1. Lukashuk, A.X. Saidov; - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jam'iyati nashriyoti, 2007. 392 b.
2. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining insoniylik mezonlari / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. — T., 2002. — 166-b.
3. Robilant, Anna Di (2006). "Genealogies of Soft Law". *The American Journal of Comparative Law*
4. Hozirgi kunda xalqaro shartnomalar tuzishning turli usullarini o'rganadigan kuchli adabiyotlar mavjud. Ser Barbara Koremenos, Charlz Lipson va Dunkan Snidal (2001a, 1051; 2001b, 761); Kal Raustiala (2005, 581; 2004, 389);
5. Klabbers, Jan. "The Redundancy of Soft Law." *Nordisk Journal of International Law* 65.2 (1996): 167–182.
6. Shelton, Dinah, ed. *Commitment and Compliance: The Role of Non-binding Norms in the International Legal*
7. <https://nuclearsuppliersgroup.org/en/>
8. Soft Law Dinah L. Shelton George Washington University Law School, dshelton@law.gwu.edu
9. <https://www.icj-cij.org/case/70>
10. <https://www.icj-cij.org/case/52>